


(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may



**Xizmatlar sohasi**

- Raqamlar:**
  - 2018 yil yanvar-may o'ylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi – **4078,1 mlrd.so'm.**
  - Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **36,2 %** ni tashkil etdi.
  - Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **1423,7** ming so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda.

Natijada, Viloyatimizda 2018 yil yanvar - may oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 3210,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi.


Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, yashash va ovqatlanish xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar va ijara xizmatlarida kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish**  
(2018 yil yanvar-may oylari uchun)


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
<b>Jami xizmatlar</b>	4078,1	103,5	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	102,5	123,2	2,5
moliyaviy xizmatlar	438,1	136,2	10,7
transport xizmatlari	1139,0	100,6	27,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>			
yashash va ovqatlanish xizmatlari	197,1	101,1	4,8
savdo xizmatlari	1356,1	95,0	33,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	149,4	103,0	3,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	76,2	102,6	1,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	59,4	117,0	1,5
ijara xizmatlari	132,2	104,9	3,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	99,4	100,1	2,4
shaxsiy xizmatlar	119,4	100,2	2,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	64,5	111,0	1,6
boshqa xizmatlar	144,8	129,2	3,6

Hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar bo'yicha – 132,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 123,2 %, boshqa xizmatlar bo'yicha – 129,2 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha – 111,0 %, ga erishildi. Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (33,3 %), transport xizmatlari (27,9 %) tashkil etadi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2018 yil yanvar-may oylari uchun)



## 2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (36,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (23,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (17,0 %) me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (11,0 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2018 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1423,7 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 102,4 % ni tashkil etdi.



Viloyat statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Mas'ul: M.Tastanbekov  
Tel:230-86-74